

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

DEKABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-4-8

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sharipova Zaynab

NEFT SHLAMLARINING FIZIK-KIMYOVIY TARKIBI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ
ETISH MASALASIGA DOIR DASTLABKI TADQIQOTLAR4-12

Kasimov Sandjar

ENERGIYA TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI SERTIFIKATLASHTIRISH VA
STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI MASALASI 13-21

Rahimov Oktyabr, Cho'liyeva Munisa

MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISHDA KOMPETENTLIKGA YEVRUPACHA
YONDOSHUV 22-26

Safoyev Nuriddin

AXBOROTNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASHDA TASODIFIY SONLAR GENERATORLARINING
AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI 27-33

TARIX FANLARI

Pirimkulova Saodat

URUSH YILLARIDA BOLALAR MUAMMOSI: TARIXIY XOTIRA VA HUJJATLARDAGI
ETILISHI 34-36

Eliyeva Nargiza

BENAZIR ILM SOHIBI 37-39

IQTISODIYOT FANLARI

Usmonov Murodbek

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI IFODALOVCHI
KO'RSATKICHLAR TAHLILI 40-44

Valiev Umid

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH CHORA-
TADBIRLARI 45-48

YURIDIK FANLARI

Reymbayeva Guldaulet

THE RIGHTS OF TOURISTS IN THE DIGITAL ERA: NEW CHALLENGES AND LEGAL
PROTECTIONS 49-54

Турсунова Маликахон

ДИПЛОМАТИЯ И МЯГКАЯ СИЛА: СООТНОШЕНИЕ И СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНЫЙ
ВЗГЛЯД 55-63

Muxitdinova Firuza

KONSTITUTSIYAVIY MODERNIZATSIYA VA XALQARO HAMKORLIK: O'ZBEKISTONNING
DUNYO MAYDONIDAGI YANGI YO'NALISHI 64-68

IQTISODIYOT FANLARI

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li

SamISI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası assistent-stajyori

Email: usmonov.murodbek95@gmail.com

Tel: +998 93 722 08 55

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi orqali aholi bandligi va farovonligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotda 2020–2024-yillar davrida xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi, ularning bandlik darajasiga va iqtisodiy faollikka ta'siri o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga asoslangan empirik tahlil natijalariga ko'ra, xizmatlar sektori qishloq aholisi uchun muhim daromad manbai bo'lib, infratuzilma rivoji va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, bandlik, qishloq iqtisodiyoti, farovonlik, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish.

ANALYSIS OF INDICATORS INDICATING EMPLOYMENT OF THE POPULATION THROUGH SERVICE PROVISION IN RURAL AREAS

Usmonov Murodbek

intern assistant, Samarkand Institute of Economics and Service,

Samarkand, Uzbekistan

Annotation. This article systematically analyzes indicators of employment and well-being of the population through the service sector in rural areas. The study examines the development of service sectors, their impact on employment levels and economic activity in the period 2020–2024. According to the results of empirical analysis based on data from the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan, the service sector is an important source of income for the rural population and is a key factor in ensuring infrastructure development and socio-economic stability.

Keywords: service sector, employment, rural economy, welfare, infrastructure, economic development.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bu qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirishdan iborat bo'ldi. Xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi, balki aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va yashash darajasini oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Xususan, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish infratuzilmasining rivojlanishi aholining iqtisodiy faolligini oshiradi va migratsiya oqimini kamaytirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulotning 60–70 foizini tashkil etadi, bu esa xizmatlar sohasining iqtisodiyotda tutgan o'rni qanchalik muhimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham so'nggi besh yil davomida xizmatlar sohasi jadal sur'atlarda o'sib, qishloq joylarida yangi tadbirkorlik subyektlari va mikrofirmalar soni sezilarli darajada ortdi. Shu bilan birga, qishloq joylarida xizmat ko'rsatishning ayrim

yo'nalishlari transport, maishiy xizmatlar, turizm, axborot-kommunikatsiya va ta'lim sohalari hali ham rivojlanishning boshlang'ich bosqichida bo'lib, ularning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti.

Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi qishloq joylarida xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi aholi bandligiga va farovonligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslash va iqtisodiy baholash metodlari asosida xizmatlar sohasi rivojining asosiy ko'rsatkichlari o'rganilib, qishloq aholisining daromad va bandlik dinamikasiga ularning ta'siri aniqlangan. Natijada, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish qishloq iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida va aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashda strategik yo'nalish sifatida e'tirof etildi.

Adabiyotlar sharhi. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligi ko'rsatkichlari (employment indicators) orqali tahlil qilinishi dolzarb ekanligi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlanmoqda. Ushbu bo'limda to'rt tahliliy manba qisqacha ko'rib chiqiladi.

Rizwanul Islamning "The Nonfarm Sector and Rural Development: Review of Issues and Evidence" nomli maqolasida olim rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishdan tashqari sohalarning (non-farm sectors) bandlikni oshirishdagi o'rni va iqtisodiy ahamiyatini tahlil qiladi [1]. Tadqiqotda xizmatlar sektori agrar iqtisodiyotdan diversifikatsiyani kuchaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishning asosiy omili sifatida ko'rsatilgan.

Hendro Dwi, Ahmad Rahman va Muhammad Setiawan kabi olimlarning "Rural smartness: Its determinants and impacts on rural economic welfare" nomli maqolada "raqamli xizmatlar" konsepsiyasi orqali qishloq joylarida iqtisodiy farovonlik va bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlar tarmog'ining kengayishi bandlik ko'rsatkichlarining o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi [2].

Ritwik Choudhury va Subrata Pal tomonidan yozilgan "Employment Diversification in Rural India: Nature, Pattern and Determinants" nomli maqolada biz tahlil qilayotgan mavzuga oid tadqiqot olib brogan. Ushbu tadqiqotda Hindiston qishloq joylarida bandlikning diversifikatsiyasi, xususan, xizmatlar sektorining ulushi va dinamikasi tahlil qilingan. Natijalar xizmatlar tarmog'i orqali aholi bandligining o'sib borayotganini hamda bu jarayon qishloq iqtisodiyotining modernizatsiyasida muhim omil ekanini tasdiqlaydi [3].

Larua Wiggins and James Proctor tomonidan yozilgan "Issues Relating to Rural Industries: A Review of Literature" nomli maqolani yozgan. Bu manbada qishloq sanoati va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'zaro aloqadorligi, bandlik ko'rsatkichlariga ta'siri hamda ijtimoiy-iqtisodiy natijalari tahlil qilingan [4]. Tadqiqotda qishloq hududlarida xizmat tarmoqlarining rivoji aholi bandligi va daromad darajasining barqaror o'sishini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekanini ta'kidlanadi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar xizmat ko'rsatish sohasining qishloq joylardagi bandlik ko'rsatkichlari bilan tahlil qilishiga qulay ilmiy asos yaratadi. Ularda quyidagi fikrlar takrorlanadi [5]. Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sektori bandlikni diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Bandlik ko'rsatkichlarini tushunishda xizmatlar tarmog'ining tarkibi (savdo, transport, raqamli xizmatlar) va sifat jihati zarur. Statistik ko'rsatkichlarni olib

baholashda adabiyotlarda e'tibor qaratilgan jihatlar: xizmatlar tarmog'i ulushi, bandlikdagi o'zgarishlar, infratuzilma va xizmatlar rivoji.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi orqali aholi bandligi va farovonligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimli tahlil qilindi. Ish jarayonida 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Jahon banki ochiq ma'lumotlar bazalari asosida statistik ma'lumotlar to'plandi. Tahlil davomida qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'sish sur'atlari, bandlik darajasi va xizmatlarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, dinamik tahlil usuli va taqqoslash metodlari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotga ko'ra, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish orqali aholi bandligi bilan bog'liq o'zgarishlar bir qator iqtisodiy va struktural omillar bilan izohlanadi. World Bank ma'lumotlariga binoan, 2010-yildan 2022-yilgacha O'zbekistonda xizmatlar sektorining YaIMdagi ulushi 41 % dan 44 % gacha oshgan. Shu bilan birga, xizmatlar sektorida bandlik taxminan 50 % darajasida barqarorlashgan.

Bandlikni qishloq-hududlarda tahlil qilishda sektoral o'zgarishlar muhim: xususan, agrar sektordagi bandlik ulushi pasayish yo'lida. 2023-yilda agrar sektor bandlikdagi ulushi 13.88 % ga tushganligi statistika ma'lumotlarida ko'rsatilgan [7].

Ushbu o'zgarishlar xizmat ko'rsatish tarmoqlarining qishloq jamiyatlariga kirib borishi va diversifikatsiyalashuvi bilan bog'liq. Qishloq joylarda xizmatlar tarmog'i kengaya boshlashi bilan, – masalan transport, savdo, turizm, raqamli xizmatlar bandlikning agrar sektordan xizmat tarmoqlariga o'tish jarayoni tezlashadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi orqali band bo'lgan aholi sonining yillik o'sish dinamikasi va xizmatlar ulushining yalpi hududiy mahsulotdagi (YHM) hissasi aks ettirilgan.

1-jadval

Aholi sonining yillik o'sish dinamikasi va xizmatlar ulushining yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) hissasi

Yil	Xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi soni (ming kishi)	Qishloq joylaridagi jami bandlikdagi ulushi (%)	Xizmatlar sohasi YaHMdagi ulushi (%)
2020	2 485	19.6	30.4
2021	2 682	20.1	31.2
2022	2 913	21.0	32.7
2023	3 204	22.4	33.9
2024	3 458	23.1	34.5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, "Xizmatlar sohasi faoliyati" (2024-yil hisobotlari).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar oralig'ida qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasi orqali band bo'lgan aholi soni 2,48 milliondan 3,46 million kishigacha, ya'ni 39% ga o'sdi. Bu o'sish, bir tomondan, xizmatlar turining kengayishi, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining samarali amalga oshirilgani, ikkinchi tomondan esa, qishloq infratuzilmasining modernizatsiyasi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, xizmatlar sohasining YaHMDagi ulushi 2020-yildagi 30,4 % dan 2024-yilda 34,5% gacha oshgan. Bu holat qishloq iqtisodiyotida diversifikatsiya jarayonlari kuchayganini, ya'ni an'anaviy qishloq xo'jaligidan tashqari sohalarda ham aholi bandligi barqarorlashayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi aholining daromad manbalarini kengaytirish, iqtisodiy faollikni oshirish va migratsiyani kamaytirishda muhim omil sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga, xizmat sifati, malaka darajasi va infratuzilma yetishmovchiligi kabi masalalar hali ham yechimini kutmoqda.

Xulosa va takliflar. Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini ta'minlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda muhim omil sifatida shakllanmoqda. 2020–2024-yillar davomida xizmatlar sektorida band bo'lgan aholi sonining barqaror o'sishi qishloq infratuzilmasining rivojlanishi, kichik biznes va tadbirkorlik uchun yaratilayotgan imkoniyatlar natijasidir. Shu bilan birga, xizmatlar tarmog'ida malakali kadrlar yetishmovchiligi, zamonaviy texnologiyalarning sust joriy etilishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining cheklanganligi bu soha samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, xizmatlar sektorini yanada rivojlantirish orqali qishloq aholisi bandligini mustahkamlash va farovonlik darajasini oshirish zarur. Izlanish natijasida quyidagi takliflarni ishlab chiqildi:

- Birinchisi, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar va subsidiya dasturlarini kengaytirish kerak.
- Ikkinchisi, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun kasbiy malaka oshirish va innovatsion texnologiyalarni o'qitish markazlarini tashkil etish lozim.
- Uchinchisi, qishloq infratuzilmasini yaxshilash maqsadida yo'l, aloqa va transport tizimlarini modernizatsiya qilish orqali xizmat turlarining geografik qamrovini kengaytirish shart.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. R. Islam, The Nonfarm Sector and Rural Development: Review of Issues and Evidence, IFPRI Discussion Paper No. 2020, Washington, D.C.: International Food Policy Research Institute, 1997.
2. H. Dwi, A. Rahman, and M. Setiawan, "Rural smartness: Its determinants and impacts on rural economic welfare," Electronic Markets, vol. 32, no. 3, pp. 845–859, 2022.
3. R. Choudhury and S. Pal, "Employment Diversification in Rural India: Nature, Pattern and Determinants," Indian Journal of Economics and Development, vol. 10, no. 2, pp. 75–88, 2014.
4. L. Wiggins and J. Proctor, Issues Relating to Rural Industries: A Review of Literature, Wageningen University Working Paper, Wageningen, The Netherlands, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari (2019–2024)", Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti, 2024. [Online]. Available: <https://stat.uz>
6. Jahon banki (World Bank), "Uzbekistan: Rural Economy and Employment Trends Report 2023", Washington, D.C.: World Bank Publications, 2023. [Online]. Available: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>

7. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR), “Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishning iqtisodiy samarasi”, Tahliliy hisobot, Toshkent, 2023.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 1-dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.